

## MIFOLOGEMALARNING O 'ZBEK ASARLARIDAGI TALQINI

**Djalilova Umida Tulkinovna**

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Tillar kafedrasi v.b.dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mifologemalar tushunchasi, ularning o'zbek adabiyotida namoyon bo'lishi va ular orqali adabiy obrazlarning qanday ma'no qazonishi ilmiy tahlil qilinadi. Bunda qiyosiy-tahliliy, semiotik va tarjimashunoslik yondashuvlari asos qilingan. Maqolada dostonlardan keltirilgan afsonaviy qahramonlar va ular to'g'risida insonlarning tasavvurlari yoritilgan. Mifologemalarning tarjimada aks etish holatlari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** afsona, doston, xalq og'zaki ijodi, qahramonlar, tasavvur.

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается понятие мифологем, особенности их проявления в узбекской литературе и роль в построении художественных образов. Применены сравнительно-аналитический, семиотический и переводоведческий подходы. В статье рассматриваются мифические герои былин и представления о них в народе. Рассматриваются случаи отражения мифологем в переводе.*

**Ключевые слова:** миф, эпос, фольклор, герои, воображение.

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of mythologemes, their representation in Uzbek literature, and their function in the construction of literary images. Comparative-analytical, semiotic, and translation studies approaches are applied. The article discusses the mythical heroes from epics and people's perceptions of them. The cases of the reflection of mythologemes in translation are discussed.*

**Keywords:** myth, epic, folklore, heroes, imagination.

### KIRISH

Mifologemalar xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular adabiyot orqali yangi ma'nolar kasb etadi. Mifologemalar oddiy simvollar emas, balki muayyan ma'naviy kodlar hisoblanadi. O'zbek adabiyotida ham mifologemalar milliy obrazlarni shakllantirishda, timsollarni yaratishda va mafkuraviy g'oyalarni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada mifologemalarning badiiy matndagi funktsiyasi, o'zbek adabiyotida qanday aks etgani va ular orqali qanday ma'no yaratilishi tahlil qilinadi.

## METODOLOGIYA

Ushbu maqolada qiyosiy-tahliliy, semiotik va intertekstual yondashuvlar asos qilindi. Mifologik obrazlar va syujetlar zamonaviy o‘zbek adabiyotida qanday aks etgani lingvistik, semiotik va adabiy tahlil orqali o‘rganildi. Shu bilan birga, tarjimashunoslik nuqtai nazaridan, mifologemalarning tarjimada qanday uzatilishi ham tahlil etildi. O‘zbek xalq dostonlaridagi afsonaviy qahramonlarning aksariyati boshqa tillarga transkripsiya va transliteratsiya usullari orqali tarjima qilingani haqida mulohazalar ko‘rsatib o‘tildi.

Maqolada asarlardan olingan misollar mifologemalarning qanday rol o‘ynayotganini aniqlash uchun tahlil qilindi. Bu yondashuv muallif pozitsiyasini, obrazlar tuzilishi va kontekstdagi ma’noni keng qamrab olish imkonini berdi.

## NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotidagi mifologemalar ko‘pincha real hayot voqealari bilan mifologik ong o‘rtasidagi bog‘lanish asosida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari o‘zbek asarlaridagi mifologik qahramonlar xalq og‘zaki ijodi, qadimiy afsona va rivoyatlar va zamonaviy adabiyotdagi interpretatsiyalar orqali ham namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodida “Alpomish”, “Go‘ro‘g’li” dostonlarida ajdarho mifologemasi uchraydi. Ajdarho odatda ko‘p boshli, olov sochuvchi mahluq sifatida tasvirlanadi. U xalq folklorida yomonlikning timsoli bo‘lib, qahramonlar ularni yengib sinovdan o‘tishadi. “Alpomish” dostonida Alpomish ajdarho bilan kurashib, qahramonligini isbotlaydi.

## MUHOKAMA

Mifologik obrazlar xalq og‘zaki badiiy ijodi, yozma adabiyot va san’at asarlaridagi mifologik negizga ega bo‘lgan afsonaviy personajlardir. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo‘lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy holatda o‘ziga ko‘chiradi. Mifologik obrazlar ibridoiy badiiy uydirma fantaziya mahsuli bo‘lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, odam tasavvurida mavjud bo‘lgan g‘ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san’atga ko‘chgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, „Alpomish“, „Kuntug‘mish“, „Rustamxon“ hamda „Go‘ro‘g’li“ turkumiga mansub dostonlar, o‘zbek xalq, afsonalari va ertaklaridagi Mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifologik obrazlar badiiy talqinining to‘laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovligini ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

O‘zbek folklorida „Avesto“ asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar bilan bog’liq Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol „piri“ sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang‘och ota, Choymomo; xalq taqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, AhmanDahman; momaqaldiroq va chaqmoq „egasi“ Guldur momo; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o‘zida ifoda etgan alvasti, yalmog‘iz kabi ko‘pgina mifologik obrazlar mavjud.

O‘zbek xalq dostonlaridagi qahramonlar nomlari Alpomish (Alpamysh), Go‘ro‘g‘li (Koroglu), Kuntug‘mish esa (Kuntughmi9sh) ingliz tilida aynan muqobili yo‘qligi tufayli tarjimada o‘z holicha qoldirilgani kuzatiladi.

Mualliflar mifologemalar orqali o‘quvchi ongida ramziy fikrlash mexanizmlarini ishga tushirishga erishadilar. Ular nafaqat badiiy uslubni boyitadi, balki o‘quvchini ruhiy mulohazaga chorlaydi.

## XULOSA

Mifologemalar o‘zbek adabiyotida xalq tafakkurining ramziy ifodasi sifatida yashaydi. Ular adabiy asarlardagi ma’naviy ruhni mustahkamlaydi, qahramon obrazlarini chuqurlashtiradi, fikr va tasavvurni timsollar orqali boyitadi. Maqolada tahlil qilingan holatlar shuni ko‘rsatadiki, mifologemalar faqat estetik vosita emas, balki milliy ma’naviyatni tiklovchi va tarbiyalovchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Tarjimada mifologemalarni saqlab qolish — millat tafakkurini to‘g‘ri uzatish uchun muhim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bart R. Mifologiya i mifologemi. – M.: 2010.
2. Krimskiy S.E. Mif kak forma mirovozzreniya. – M.: Nauka, 2003.
3. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1982.
4. Sulton T. Qora ko‘z. – Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi, 1994.
5. Mamajonov A. Adabiy tiplar va mifologik obrazlar. – Toshkent, 2017.
6. Erkin A’zam. Kelgini. – Toshkent: “Sharq”, 2003.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1990.
8. Xamidov N. Mif va reallik. – Toshkent: “Universitet”, 2001.
9. Arifov B. Adabiyot va mif. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.